

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

BERDIYEVA XONIMOY EVODULLAYEVNA

**HISOR VA JAYDARI ZOTLARI BO‘YICHA
IKKINCHI BO‘G‘INGA EGA DURAGAY QO‘YLARNI
“O‘Z ICHIDA” URCHITISH SAMARADORLIGI**

**06.02.01–Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish, ko‘paytirish seleksiyasi va genetikasi.
Qorako‘lchilik.**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Berdiyeva Xonimoy Evodullayevna

Hisor va jaydari zotlari bo‘yicha ikkinchi bo‘g‘inga ega duragay qo‘ylarni “o‘z
ichida” urchitish samaradorligi 3

Бердиева Хонимой Эводуллаевна

Эффективность разведения "в себе" помесных овец со вторым поколением
гиссарской и джайдарийской пород21

Berdieva Khonimoy Evodullaevna

The effectiveness of breeding "in-itself" crossbreed sheep with the second
generation of Hissar and Jaidari breeds39

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

BERDIYEVA XONIMOY EVODULLAYEVNA

**HISOR VA JAYDARI ZOTLARI BO‘YICHA
IKKINCHI BO‘G‘INGA EGA DURAGAY QO‘YLARNI
“O‘Z ICHIDA” URCHITISH SAMARADORLIGI**

**06.02.01–Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish, ko‘paytirish seleksiyasi va genetikasi.
Qorako‘lchilik.**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.4.(PhD)/Qx1042 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyo-net» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz.) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Ro'ziboyev Nuraddin Raximovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gaziyev Adxam
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim,
Qozog'iston Respublikasi agrar fanlar milliy akademiyasi akademigi

Kuchchiyev Oxunjon Razzoqovich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi
huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "2" noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisi bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel: (99871) 260-48-00, faks (99871) 260-38-60, E-mail tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 551888 raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy, ToshDAU ARM binosi, 1-qavat, tel:(99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" oktyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "16" oktyabrdagi № 18 raqamli reyestr bayonomasi)



SH.R.Umarov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

X.A.Donayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
q.x.f.d. (PhD), dotsent

Q.J.Shakirov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qo'ychilik asosiy tarmoqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Avstraliya, Angliya, Yangi Zelandiya, Ispaniya, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, AQSH, Italiya va boshqa qo'ychiligi rivojlangan davlatlarda qo'ylarni yaylov va yirik qo'ychilik komplekslarida yuqori asrash va oziqlantirish sharoitlarida to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash, mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, jahon genofondiga xos naslli qo'chqorlarning irsiy imkoniyatlaridan foydalanib kelinmoqda. Qo'y zotlarini sun'iy urug'lantirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yanada yaxshilash, maqbul mahsuldorlik tipi talablariga javob beradigan qo'ylarning naslli suruvlarini iqlim sharoitlariga chidamliligini oshirish, konstantligi yuqori qo'ylarni muttasil tanlash ishlari olib borish, sermahsul qo'ylarning yangi tip va zotlarini yaratish yo'nalishidagi olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqil hamdo'stlik davlatlari-Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston dumbali qo'ylar seleksiyasi, asosan, xalqaro bozorda talabga ega yuqori sifatli yosh qo'y go'shti ishlab chiqarishga hamda qo'y junidan yengil sanoatda qayta ishlash talablariga javob beradigan gilam, trikotaj va har xil turdagi gazlamalar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan, go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali qo'y zotlarining genetik salohiyatidan muntazam foydalanish va shu asosda yuqori go'sht mahsuldorligi va yuqori irsiyatga ega istiqbolli populyatsiyalarni yaratish, qimmatli biologik xususiyatlar bilan birgalikda mazkur sohani samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda qo'ychilikda aholining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ta'minlashda maqbul yaylov oziqlantirish sharoitlarini yaxshilash orqali mavjud go'sht-yog' mahsuldorlik yo'nalishidagi dumbali qo'ylarning nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, jadal innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish borasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barovar oshirish qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish shuningdek, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 barovar ko'paytirish» ga¹ yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, zotlarning nasl, mahsuldorlik pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, ularning sermahsul liniyalarni, oilalalarini, tip va zotlarni yaratish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 martdagi «Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

tadbirlari to'g'risida» gi² PQ-4243-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2021 yil 3 martdagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi³ PQ-5017-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan

vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi"ning ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitlarida go'sht-yog' mahsuldorlik yo'nalishdagi qo'y zotlarining son va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilab, ularning xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirish borasida P.F. Kiyatkin, Y.R. Qurbonov, A.Yuldashev, S.Y.Yusupov, O'.X.Aripov, S.R.Bazarov, N.A.Boboqulov, A.Gaziyev va N.R.Ro'ziboyevlar tomonidan bir qator ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, xorijiy hamda MDX olimlaridan S.Galal, O.Gursoy, C.E.Hernandez, L.R.Matthews, U.Sen, G.Wu, F.W.Bazer, N.Atti. C.L.Adam, T.Bake, M.Hudsonlar qo'y zotlarini turli noqulay iqlim sharoitlarida chidamliligini oshirish, turli chatishtirish va urchitish usullarida sermahsul duragay qo'ylarning naslli suruvlarini yaratish, ularda muttasil tanlash ishlarini olib borib, irsiy belgilarini nasldan naslga o'zgarishsiz o'tkaza oladigan sermahsul qo'ylarning yangi tip va zotlarini yaratish yo'nalishlarida izlanishlar olib borish hamda mahsulot ishlab chiqarishning jadal texnologiyasini yaratish, seleksion-genetik parametrlaridan foydalanib, o'sish va rivojlanishning turli davrlarida seleksiyalash bo'yicha Rossiya Federatsiyasida Yeroxin A. I., Yuldashbayev Y. A., Salixov A.A., Dvalishvili V. G., Zulayev M.S., Tojikistonda Lebedov I.G., Farsixanov S.I., Xayitov A.X., Raximov Sh.T., Davlatov X.K., Qirg'izstonda Aripov T.T., Chortonbayev T.D., Bekturov A., Qozog'istonda Ombayev A., Sadikulov T.S., Traisov B.B., Kasimova G.V. va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Respublikamizda keskin o'zgaruvchan issiq-iqlim sharoitlarida, go'sht-yog' mahsuldorlik yo'nalishidagi dumbali qo'ylarning go'sht mahsuldorligini oshirib, ulardan yuqori sifatli go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali qo'ylarni jahon genofondiga xos naslli qo'chqorlar bilan zavod chatishtirish, olingan duragaylar qo'ylarni "o'z ichida" urchitish va ulardan tug'ilgan avlodlarning mahsuldorligini turli seleksiya usullarida oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 martdagi "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va so'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" PQ 4243 sonli qarori.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5017-sonli qarori

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chorvachilik va parandachilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot mavzu rejasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan "O'zbekistonning tog' va tog'oldi hududlari sharoitida jaydari zotli qo'ylarning yangi zot guruhini yaratish hamda go'shtdor-serjun qo'ylarning mahsuldorligini oshirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikamizning tog' va tog'oldi hududlarida hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega duragay qo'ylarni "o'z ichida" urchitish samaradorligini aniqlash asosida qo'ylarning mahsuldorligini oshirish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

turli zot va zotdorlikdagi sovliqlarning tirik vazni va jun miqdorini o'rganish;

tajriba guruhidagi sovliqlarning eksteryer va yil fasllari bo'yicha klinik ko'rsatkichlarini va pushtdorlik xususiyatlarini aniqlash;

"o'z ichida" urchitishdan olingan qo'zilarining o'sishi va rivojlanishini aniqlash;

qo'zilarining yil fasllari bo'yicha klinik va gemotologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

maqsadli seleksiya ishlarini olib borish natijasida belgilarning irsiy jihatdan mustahkamlanib, ularning namoyon bo'lish darajalarini kuchaytirish;

seleksion-genetik parametrlardan foydalanib, qo'ylarning mahsuldorligini oshirish;

"o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan avlodlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sof jaydari zotli hamda $\frac{3}{4}$ hisor x $\frac{1}{4}$ jaydari zotdorlikdagi F₂ bo'g'inga ega duragay sovliqlar.

Tadqiqotning predmeti. Hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega duragay qo'ylarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan avlodlarning tirik vazni, eksteryeri, pushtdorlik, hamda boshqa seleksiya-genetik ko'rsatkichlarini o'rganish, tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishdan zootexnikaviy: tirik vazni, serpushtligi, (VIJ metodikasi, 1978); biologik: o'sish, rivojlanish, eksteryer, tana tuzilish indeksleri, klinik va gemotologik ko'rsatkichlari zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda, statistik: o'rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi (Merkuryeva Ye.K. 1970) hamda iqtisodiy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor seleksion-genetik parametrlardan foydalanib, hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega duragay sovliqlarni "o'z ichida" urchitish samaradorligi isbotlangan;

"o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan duragay qo'zilarining o'sish ko'rsatkichlaridan tirik vazni bo'yicha, sof jaydari zotli tengqurlarnikidan

tugʻilganda 0,41 kg, 3 oylik yoshida tegishli ravishda 2,34 kg; 8 oyda 2,81 kg; 12 oyda 3,39 kg yuqori boʻlishi asoslangan;

qoʻzilarning oʻsish koʻrsatkchlar va tana indeksleri goʻsht-yogʻ xiliga mansub ekanligi isbotlandi hamda klinik va gemotologik koʻrsatkichlari fiziologik meʼyor darajada ekanligi aniqlangan;

“oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan duragay qoʻzilarning tugʻilgandan, 18 oylik yoshigacha mutlaq oʻsishi, sof jaydari zotli tengqurlarnikiga nisbatan qoʻchqorlarda 5,17 kg (8,7%), urgʻochilarda 4,15 kg (7,9%) yuqori boʻlishi isbotlangan;

ilk bor F_2 duragay qoʻylarni “oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan avlodlarning seleksiya samaradorligini oshirishda, ularning irsiyatga aniq baho beruvchi seleksion-genetik koʻrsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qoʻyidagilardan iborat:

togʻ va togʻoldi iqlim sharoitlarida F_2 duragay qoʻylarni “oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan avlodlarning mahsuldorlik xususiyatlari aniqlangan va tahlil qilingan;

turli zot va zotdorlikka ega duragay qoʻzilarning oʻsish va rivojlanishi, tana oʻlchamlari va shu asosda hisoblangan tana indeksleri tahlili, ularning goʻsht-yogʻ xiliga mansubligi aniqlangan;

“oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan duragay qoʻzilarning tirik vazni sof jaydari zotli tengdoshlarnikidan tugʻilganda 0,41 kg (11,0%), 8 oyda 2,81 kg (6,3%), 12 oyda 3,39 kg (7,6%) yuqori boʻlishi aniqlangan;

F_2 duragay qoʻylarni “oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan duragay qoʻzilarning seleksion-genetik (regressiya) koʻrsatkichlari boʻyicha 18 oyligida duragay qoʻchqorchalar tirik vaznining 1,91 kg oshishi, ular yagʻrin balandligining 0,25 sm, urgʻochilarda esa tegishli ravishda 0,750 kg ga ortishi, yagʻrin balandligini 0,109 sm ga oshganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalari hamda birlamchi hujjatlar, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti va Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi aprotatsiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanganligi, barcha eksperimental maʼlumotlarning statistik tahlildan oʻtkazilganligi va natijalarning ishonchliligini, olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining respublikamiz va chet ellarda oʻtkazilgan respublika va halqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilganligi hamda maʼqullanganligi tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor “oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan duragay qoʻzilarning mahsuldorligi sof jaydari zotli qoʻzilarga nisbatan yuqoriligi, duragay qoʻzilarning mahsuldorlik xususiyatlari turli seleksiya usullarda yaxshilangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “oʻz ichida” urchitishdan tugʻilgan avlodlarning mahsuldorligini oshirishda seleksion–genetik parametrlar qoʻllanilganligi hamda turli genotipga ega duragay qoʻzilarning tirik vazni va mutloq oʻsishi boʻyicha iqtisodiy samaradorligini talab darajasida yetkazib berish

hamda imkoniyatlarini ochib berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega duragay qo'ylarni "o'z ichida" urchitish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

"go'sht-yog' mahsuldorlik yo'nalishidagi dumbali qo'y zotlarida seleksiya samaradorligi bo'yicha tavsiyanoma" ishlab chiqilgan va Ohangaron tumanidagi "Qizil Bour" naslchilik fermer xo'jaligida 120 bosh duragay qo'zilar joriy etilgan. (Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 04 martdagi 02/23-146-son ma'lumotnomasi). Natijada 8 oylik yoshida qo'zilar tirik vazni 47,11 kg tashkil etib, sof jaydari zotli tengqurlarnikiga nisbatan 2,81 kg yoki 6,3%, jami daromad 1719515 (bir million bir yetti yuz o'n to'qqiz ming besh yuz o'n besh) so'mni, sof foyda 489515 (to'rt yuz sakson to'qqiz ming besh yuz o'n besh) so'mga teng bo'lib, rentabellik darajasi 39,8% foizni tashkil etgan;

tadqiqot guruhidagi qo'zilar tirik vaznning mutloq o'sishi qo'ychilikka ixtisoslashgan "Ohang Abdullayev Abdurauf" naslchilik fermer xo'jaligida "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan 130 bosh duragay qo'zilar joriy etilgan. (Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 4 martdagi 02/23-146-son ma'lumotnomasi). Natijada duragay qo'zilar 12 oylik bir bosh duragay qo'zining tirik vazni 52,78 kg ga yetkazilib, sof jaydari zotli qo'zining tirik vazniga nisbatan 3,39 kg yoki 6,8% yuqori qo'shimcha tirik vazn olingan jami daromad 1926470 (bir million to'qqiz yuz yigirma olti ming to'rt yuz yetmish) so'mni, sof foyda 541470 (besh yuz qirq bir ming to'rt yuz yetmish) so'mga teng bo'lib, rentabellik darajasi 39,1% ni tashkil etgan;

hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega qo'ylarni "o'z ichida" urchitish usuli Ohangaron tumanidagi "Xolto'rayev Oybek XM" naslchilik fermer xo'jaligida 250 bosh duragay qo'zilar joriy etilgan (Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 4 martdagi 02/23-146-son ma'lumotnomasi). Natijada fermer xo'jaligida qo'ylarning har xil belgilarining nasldan-naslga o'tishi darajasi seleksion-genetik ko'rsatkichlari bo'yicha 18 oylik bir bosh duragay qo'zining tirik vazni 66,37 kg ga yetkazilib, sof jaydari zotli qo'zining tirik vazniga nisbatan 5,15 kg yuqori qo'shimcha tirik vazn olingan, jami daromad 2323300 (ikki million uch yuz yigirma uch ming uch yuz) so'mni, sof foyda 696700 (olti yuz to'qson olti ming yetti yuz) so'mga teng bo'lib, rentabellik darajasi 42,8% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Dissertatsiya ilmiy-tadqiqotlari natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga ruxsat etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan 1 ta xorij jurnallarda chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 101 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti xarakterlangan, mavzuning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan. Ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha va e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning adabiyotlar sharhi deb nomlangan birinchi bobi 2 bo'limdan iborat. Bu bobda mavzu bo'yicha respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili yoritilgan. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda dumbali qo'y zotlarining qisqacha tavsifi, qo'ylarning mahsuldorligini turli seleksiya usullarida oshirish kabi turli davrlarda o'tkazilgan qo'plab mualliflarning tadqiqot natijalaridan sharhlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkazilgan manbai va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot obyekti, tajribalar o'tkazilgan joyi va qo'llanilgan uslublari va tadqiqotlar tasviri keltirilgan. Tajribalar 2021-2023 yillarda Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi qo'ychilikka ixtisoslashgan "Xolto'rayev Oybek XM" naslchilik fermer xo'jaligida sof jaydari zotli sovliqlarda hamda hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega duragay sovliqlarda o'tkazildi.

Qo'ylarning tirik vazni elektron tarozida o'lchash yo'li bilan aniqlandi. Tajribadagi qo'zilarining tug'ilganda, 1, 3, 5, 8, 12 va 18 oylik yoshidagi mutloq, kunlik va nisbiy o'sishi aniqlandi. Qo'ylarning pushtdorligi zootexniyada qabul qilingan usullarda, eksteryer xususiyatlari tana qismlarini o'lchash orqali va tana tuzilishi indeksleri zootexniyada umum qabul qilingan formulalar yordamida aniqlandi (Kostomaxin N.M.2006).

Tajribadagi qo'zilarining hayotchanligi, chiqim ko'rsatkichi bo'yicha, suruvni ko'paytirish xususiyati, qo'zilash va 100 bosh sovliqdan olingan qo'zilar miqdoridan aniqlandi.

Tajribadagi qo'ylarning klinik ko'rsatkichlari har guruhda 5 boshdan tana harorati, nafas olishi va yurak urishi yil fasllari zootexnikada qabul qilingan usullarda o'rganildi.

Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqilgan mahsulot miqdorini so'mda ifodalanib, har bir bosh qo'yga sarflangan xarajatlar va undan olingan mahsulot o'rtasidagi farqni aniqlash yo'li bilan amalga oshirildi.

Tadqiqotning tajriba qismidan olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida biometrik ishlov berildi (Ye.K. Merkuryeva 1970).

Dissertatsiyaning "**Turli genotipdagi sovliqlarning ayrim biologik va mahsuldorlik xususiyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobida tajriba guruhlaridagi sovliqlarni oziqlantirish, sovliqlarning tirik vazni, eksteryeri, sovliqlarning yil fasllari bo'yicha klinik ko'rsatkichlari, tajribadagi sovliqlarning pushtdorlik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Hisor va jaydari zotlari bo'yicha ikkinchi bo'g'inga ega F₂ duragay qo'ylarning mahsuldorlik xususiyatlari muhim ahamiyatga egadir. 1-jadvalda tajriba guruhidagi sovliqlarning tirik vazni va jun miqdori keltirilgan.

1-jadval

Sovliqlarning tirik vazn va jun miqdori, kg

Guruh	Zoti va zotdorligi	n	Tirik vazni		Jun miqdori	
			$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%
I	Sof jaydari zotli sovliqlar	50	59,2±0,51	6,11	2,20±0,037	11,83
II	F ₂ bo'g'inga ega sovliqlar	50	65,0±0,56**	6,09	1,85±0,044*	17,35

Eslatma: *P>0,99; **P>0,999

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, I guruhdagi sof jaydari zotli sovliqlarning tirik vaznidan II guruhdagi F₂ bo'g'inga ega sovliqlarning tirik vazni 65,0 kg tashkil etib, sof jaydari zotli sovliqlarga nisbatan 5,8 kg yoki 9,8% yuqori bo'ldi. Shuning bilan birga I guruhdagi sovliqlarning jun miqdori, II guruhdagi F₂ bo'g'inga ega sovliqlarning jun miqdoriga nisbatan 0,35 kg ga yuqori bo'ldi. Tirik vaznda o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti yuqoriroq (6,11-6,09) foizga ega ekanligi, urchitish samaradorligini ta'minladi. Hisor zotli sovliqlarning jun qirqimi miqdori bo'yicha belgilarning nasldan naslga o'tkazishi natijasida F₂ bo'g'inga ega sovliqlarda jun qirqimi miqdorining kam bo'lishini ularning genotipiga bog'liqligidan ko'rish mumkin.

Tajriba guruhlaridagi sovliqlarning yil fasllari kesimida klinik ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qo'ylarning klinik ko'rsatkichlari, n=5

Ko'rsatkichlar	I		II	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%
Qishda				
Tana harorati °C	38,59±0,03	0,23	38,57±0,26	0,21
Yurak urishi (1 daqiqada)	71,4±0,37	1,64	71,5±0,26	1,19
Nafas olishi (1 daqiqada)	18,0±0,26	5,54	17,9±0,27	4,89
Bahorda				
Tana harorati °C	38,7±0,07	0,60	38,6±0,060	0,49
Yurak urishi(1 daqiqada)	72,4±0,73	3,20	72,2±0,416	1,82
Nafas olishi (1 daqiqada)	18,8±0,42	7,00	18,2±0,442	7,68
Yozda				
Tana harorati °C	39,4±0,15	1,23	39,21±0,081	0,65
Yurak urishi (1 daqiqada)	76,9±0,43	1,78	75,7±0,42	1,77
Nafas olishi (1 daqiqada)	27,1±0,60	7,06	26,2±0,44	5,34
Kuzda				
Tana harorati, °C	38,8±0,08	0,63	38,7±0,07	0,55
Yurak urishi (1 daqiqada)	72,8±0,61	2,65	72,9±0,56	2,46
Nafas olishi (1 daqiqada)	19,0±0,58	9,61	18,8±0,49	8,24

2-jadval malumotlarida, har ikkala guruhdagi sovliqlarning tana harorati, nafas olishi, yurak urishi ko'rsatkichlari fiziologik meyor talablari darajasida bo'lganligi aniqlandi va guruhlararo farq uncha kuzatilmadi.

Yoz faslida har ikkala guruhdagi qo'ylarning tana harorati 39,4 °C va 39,21 °C, bir daqiqada yurak urushi 76,9 va 75,7 martani, bir daqiqada nafas olishi 27,1 va 26,2 martani tashkil etib, qish fasliga nisbatan tegishli ravishda tana harorati 0,81 °C va 0,64 °C, yurak urushi bir daqiqada 5,5 va 4,2 martani, bir daqiqada

nafas olishi esa 9,1 va 8,3 marta yuqori bo'ldi.

Tadqiqotlarda yoz faslida I guruhdagi sof jaydari zotli sovliqlarning tana harorati qish fasliga nisbatan tegishli ravishda 0,81°C, bahor fasliga nisbatan 0,7 °C va 0,6 °Cga yuqori bo'ldi. Xuddi shuningdek, I guruhdagi duragay sovliqlarda ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 0,64; 0,61 va 0,51 °C yuqori bo'ldi. Bu ikkala guruhda ham yilning barcha fasllarida klinik ko'rsatkichlari bo'yicha fiziologik meyor darajada bo'lganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Ikkinchi bo'g'inga ega qo'ylarni “o'z ichida” urchitishdan tug'ilgan duragay qo'zilarining o'sishi va rivojlanishi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida tog' va tog'oldi hududlari sharoitida sof jaydari zotli hamda “o'z ichida” urchitishdan tug'ilgan duragay qo'zilarining davrlar kesimida tirik vazni, o'sish jadalligi, tajriba guruhidagi qo'zilarining tana o'lchamlari va tana

3-jadval

Sof zotli va duragay qo'zilarining davrlar bo'yicha tirik vazn ko'rsatkichlari, kg

Guruhlar	Zoti va zotdorligi	Jinsi						Qo'zilarining o'rtachatirikvazni		
		Erkak			Urg'ochi			n	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%
		n	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%	n	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v ,%			
Tug'ilganda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	5,17±0,06	5,8 8	22	4,74±0,13	12,58	46	4,96±0,08	7,2 3
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	5,62±0,10***	9,4 7	23	5,08±0,07*	6,79	49	5,37±0,07***	6,3 0
Bir oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	17,05±0,27	7,7 2	22	16,46±0,33	9,4 0	46	16,77±0,24	6,8 5
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	18,64±0,32***	8,7 4	23	17,70±0,38*	10,36	49	18,20±0,24***	6,4 1
3 oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	33,06±0,55	8,1 1	22	31,93±0,60	8,7 5	46	32,52±0,42	6,1 9
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	35,60±0,40***	5,7 2	23	34,03±0,58*	8,1 6	49	34,86±0,41***	5,7 9
5 oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	41,26±0,63	7,4 6	22	39,50±0,93	7,1 1	46	40,42±0,47	5,5 6
II	“o'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	44,52±0,55***	6,2 8	23	41,65±0,63*	7,2 2	49	43,17±0,50***	5,7 1
8 oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	45,50±0,51	5,4 4	22	43,00±0,47	5,1 1	46	44,30±0,39	4,2 6
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	48,84±0,46***	4,7 9	23	45,16±0,62**	6,5 9	49	7,11±0,38***	3,9 9
12 oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	51,40±0,95	9,0 2	22	47,20±0,52	5,2 1	46	49,39±0,56	5,4 4
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	55,25±1,04**	9,6 7	23	50,00±0,53***	5,0 9	49	52,78±0,58***	5,3 7
18 oylikda										
I	Sof jaydari zotli qo'zilar	24	64,80±1,10	8,3 3	22	57,31±0,87	7,1 4	46	61,22±0,49	3,8 1
II	“O'z ichida” urchitishdan tug'ilgan qo'zilar	26	70,42±1,09***	7,9 0	23	61,80±0,76***	5,9 4	49	66,37±0,55***	4,0 6


Eslatma: *P>0,95; **P>0,99; ***P>0,999

indekslari, yil fasllari bo'yicha klinik va qo'zilar qonining morfologik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Tajribadagi sof jaydari zotli va F₂ bo'g'inga ega sovliqlarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan qo'zilarning davrlar bo'yicha tirik vazni 3-jadvalda aks etgan.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, II guruhda F₂ bo'g'inga ega sovliqlarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan duragay qo'chqorchalarning tug'ilganda tirik vazni o'rtacha 5,62 kg, urg'ochilari tegishli ravishda 5,17 kg tashkil etib, I guruhda sof jaydari zotli sovliqlardan tug'ilgan tengqurlarning tirik vazniga nisbatan 0,45 kg yoki 8,7% (P>0,999) va 0,34 kg yoki 7,2% (P>0,95) yuqori bo'ldi. Shuning bilan birga tajribadagi duragay qo'zilarning tug'ilganda o'rtacha tirik vazni 5,37 kg tashkil etib, sof jaydari qo'zilarning o'rtacha tirik vazniga nisbatan 0,41 kg yoki 8,3% (P>0,999) yuqori ekanligi aniqlandi.

5 oylik yoshida II guruhdagi F₂ bo'g'inga ega sovliqlarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan duragay qo'chqorchalar tirik vazni 44,52 kg va urg'ochi duragaylar esa 41,65 kg tashkil etib, I guruhdagi tengqur qo'chqorlarga nisbatan 3,26 yoki 7,9% (P>0,999) va urg'ochi qo'zilarga nisbatan 2,15 kg yoki 5,4% (P>0,95) yuqori bo'ldi. Ushbu oylarda har ikkala guruhdagi qo'zilarning aniqlangan o'rtacha tirik vaznlari bo'yicha tahlil qilinganda, duragay qo'zilarning o'rtacha tirik vazni 43,17 kg sof zotli tengqur qo'zilarning o'rtacha tirik vazniga nisbatan 2,75 kg yoki 6,8% (P>0,999) yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Tadqiqotlarda "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan duragay qo'zilarning 8 oylik yoshidagi tirik vazni yuqori ekanligi aniqlandi. Duragay qo'chqorchalarning tirik vazni 48,84 kg va duragay urg'ochi qo'zilar-45,16 kg tashkil etib, sof jaydari zotli tengqurlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 3,34 kg yoki 7,3%(P>0,999) va 2,16 kg yoki 5,0%(P>0,99) yuqori bo'ldi.



1-rasm. Tajriba guruhlaridagi qo'zilarning mutloq o'sishi

Tirik vazni bo'yicha yuqori ustunlik F_2 bo'g'inga ega sovliqlarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan qo'zilarda kuzatildi, bunda duragay qo'chqorchalarning 12 oylik yoshida tirik vazni o'rtacha 55,25 kg, sof jaydari zotli tengqur qo'chqorchalarga nisbatan 3,85 kg (7,5%, $P>0,99$), urg'ochilari tegishli ravishda 50,0 kg, sof jaydari zotli urg'ochilarga nisbatan 2,8 kg (5,9%, $P>0,999$) yuqori bo'lganligi aniqlandi. Shuni qayd qilish kerakki, guruhlardagi qo'zilarning o'rtacha tirik vazn ko'rsatkichlarini aniqlaganimizda duragay qo'zilarning 12 oylik yoshidagi tirik vazni yuqori ekanligi aniqlandi. Masalan, tadqiqotlarda duragay qo'zilarning o'rtacha tirik vazni 52,78 kg, sof jaydari qo'zilarning o'rtacha tirik vazniga nisbatan 3,39 kg (6,8%, $P>0,999$) yuqori ekanligi aniqlandi.

Duragay qo'zilarning 18 oyligida ham tirik vazn bo'yicha sof jaydari zotli tengqurlarnikidan yuqori natijaga erishdilar. Masalan, 18 oyligida duragay qo'chqorchalar 70,42 kg va urg'ochilar 61,8 kg ga teng bo'lib, sof jaydari zotli qo'chqorlarga nisbatan 5,62 kg yoki 8,7% ($P>0,999$) va 4,49 kg yoki 7,8% ga ($P>0,999$) yuqori bo'ldi.

Barcha tajriba guruhlari qo'zilarning zoti va zotdorligidan qat'iy nazar ularning 18 oylik yoshida tirik vaznini aniqlash natijalariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkichlarga duragaylarda namoyon bo'ldi. Jumladan, duragay qo'zilarning o'rtacha tirik vazni 66,37 kg ga teng bo'lib, sof jaydari zotli tengqurlarnikiga nisbatan 5,15 kg yoki 8,4% ($P>0,999$) yuqori bo'lganligi aniqlandi. Tirik vazn bo'yicha statistik ishonchlilik ($P>0,95$; $P>0,99$; $P>0,999$) darajalarining ortib borishi, ularda seleksiya samaradorligini belgilaydi. Shunday qilib, tadqiqotlardan olingan natijalar jinsidan va yoshidan qat'iy nazar qo'zilarning tug'ilganda, 1, 3, 5, 8, 12 va 18 oyligida yuqori tirik vaznga "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan qo'zilarda kuzatildi, bu natijalar qo'zilarning tirik vazni ularning zotdorligiga bog'liqligidan dalolat beradi.

18 oylik yoshda turli zot va zotdorlikdagi qo'ylarning tana o'lchamlari 4-jadvalda keltiriladi.

4-jadval

Sof zotli va F_2 bo'g'inga ega sovliqlarni "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan avlodlarining 18 oylik yoshida tana o'lchamlari, sm ($\bar{X} \pm S^x$)

Ko'rsatkichlar	Erkak (n=8)		Urg'ochi (n=9)	
	I	II	I	II
Yag'rin balandligi	74,01+0,486	76,83+0,484** *	71,24+0,412	72,52+0,460*
Sag'ri balandligi	74,65+0,508	77,46+0,548* *	71,90+0,394	73,15+0,468*
Tananing qiya uzunligi	73,72+0,560	76,82+0,631* *	70,65+0,535	71,85+ 0,527
Ko'krak kengligi	19,46+0,306	20,28+0,302*	18,24+ 0,208	19,31+0,225***
Ko'krak chuqurligi	24,65+0,333	25,71+0,408*	23,15+ 0,254	24,11+ 0,266**
Ko'krak aylanasi	91,41+0,660	94,45+0,710* *	87,01+ 0,617	89,51+0,638* *
Pocha aylanasi	8,07+0,077	8,10+0,071	8,01+ 0,068	8,04+0,073


Eslatma: * $P>0,95$; ** $P>0,99$; *** $P>0,999$

4-jadval ma'lumotlari "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan avlodlarning tana o'lchamlari, sof jaydari zotli tengqurlarning tana o'lchamlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi ko'rsatilgan. Jumladan, II tajriba guruhidagi duragay qo'chqorlarning yag'rin balandligi 76,83 sm, sag'ri balandligi 77,46 sm, tananing qiya uzunligi 76,82 sm, ko'krak kengligi 20,28 sm, ko'krak chuqurligi 25,71 sm, ko'krak aylanasi 94,45 sm va pochka aylanasi 8,10 sm teng bo'lib, sof jaydari zotli tengqurlarnikidan yag'rin balandligi bo'yicha tegishli ravishda 2,82 sm yoki 3,8% ga ($P>0,999$), sag'ri balandligi 2,81 sm yoki 3,8% ga ($P>0,99$), tananing qiya uzunligi 3,1 sm yoki 4,2% ga ($P>0,99$), ko'krak kengligi 0,82 sm yoki 4,21% ga ($P>0,95$), ko'krak chuqurligi 1,06 yoki 4,3% ga ($P>0,95$), ko'krak aylanasi

3,04 sm yoki 3,32% ga ($P>0,99$) va pochka aylanasi 0,03 sm yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Urg'ochi duragay to'qlilarning 18 oyda tana o'lchamlari, sof jaydari zotli tengqurlarnikidan birmuncha yuqori natija bilan tavsiflandilar. Jumladan, duragay urg'ochilarning yag'rin balandligi 72,52 sm, sof jaydari zotli tengqurlarga nisbatan 1,28 yoki 1,8% ga ($P>0,95$); ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda sag'ri balandligi 73,15 sm 1,25 sm yoki 1,7% ga ($P>0,95$); tananing qiya uzunligi 71,85 sm 1,2 sm yoki 1,7% ga, ko'krak kengligi 19,31 sm 1,07 sm yoki 5,9% ga ($P>0,999$); ko'krak chuqurligi 24,11 sm 0,96 sm yoki 4,1% ga ($P>0,99$); ko'krak aylanasi 89,51 sm 2,5 sm yoki 2,87% ga ($P>0,99$) va pochka aylanasi 0,03 sm ustunlik qilganligi namoyon bo'ldi.

Tajribalarda "o'z ichida" urchitishdan tug'ilgan duragay qo'zilar jinsidan qat'iy nazar, barcha davrlarda sof jaydari zotli tengqurlarnikiga nisbatan tana o'lchamlari asosida hisoblab chiqilgan tana indekslari bo'yicha ham yuqori natija bilan tavsiflandilar (2-rasm).



2-rasm. 18 oylik yoshdagi qo'ylarning tana indekslari

2-rasmdan ko‘rinishicha, F₂ zotdorlikdagi duragay qo‘ylarni “o‘z ichida” urchitishdan tug‘ilgan 18 oylik yoshdagi I guruhdagi duragay qo‘chqorchalarning uzunoyoqlilik, cho‘ziluvchanlik, ko‘krakdorlik, zichlilik, suyakdorlik va o‘sovchanlik indeksleri tegishli ravishda 70,89; 100; 81,02; 124,95; 11,54, 101,86% ni tashkil etib, I guruhdagi sof jaydari zotli tengqurlarnikidan 4,2; 0,40; 2,08; 0,96; 0,64, 1,0% yuqori bo‘ldi. II guruhdagi duragay urg‘ochi qo‘zilar ushbu yoshda tana indeksleri tegishli ravishda 67,46; 99,48; 80,09; 124,58; 11,48 va 101,8%ga teng bo‘lib, sof jaydari zotli urg‘ochi qo‘zilarga nisbatan 0,03; 0,31; 1,29; 1,43; 0,24 va 0,88% yuqori bo‘ldi. F₂ zotdorlikdagi duragay sovliqlarni “o‘z ichida” urchitishdan tug‘ilgan avlodlarda ko‘krakdorlik, zichlilik va o‘sovchanlik indekslarining yuqoriligi, ularning go‘sh-t-yog‘ shakliga mansub ekanligini ko‘rish mumkin.

